

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/31.01.2023.K/T.78.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

XOLMURODOVA SABOXAT ALMAXMATOVNA

**AMINOGURUH TUTGAN ORGANIK BIRIKMALAR BILAN
MODIFIKATSIYALANGAN VERMIKULIT ASOSIDA ORGANO-
NOORGANIK SORBENTLAR OLIH TEXNOLOGIYASINI ISHLAB
CHIQISH**

02.00.13 - Noorganik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi

02.00.14 - Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Termiz-2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Xolmurodova Saboxat Almaxmatovna

Aminoguruh tutgan organik birikmalar bilan
modifikatsiyalangan vermikulit asosida organo-noorganik
sorbentlar olish texnologiyasini ishlab chiqish.....3

Холмуродова Сабохат Алмахматовна

Разработка технологии получения органо-неорганических
сорбентов на основе вермикулита, модифицированного
органическими соединениями, содержащими аминокруппы.....21

Xolmurodova Saboxat Almaxmatovna

Development of technology for obtaining organo-inorganic
sorbents based on vermiculite modified with organic
compounds containing amino groups.....39

E’lon qilingan ilmiy ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works.....42

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/31.01.2023.K/T.78.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

XOLMURODOVA SABOXAT ALMAXMATOVNA

**AMINOGURUH TUTGAN ORGANIK BIRIKMALAR BILAN
MODIFIKATSIYALANGAN VERMIKULIT ASOSIDA ORGANO-
NOORGANIK SORBENTLAR OLIH TEXNOLOGIYASINI ISHLAB
CHIQISH**

02.00.13 - Noorganik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi

02.00.14 - Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Termiz-2025

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/T4837 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (termizdu@umail.uz) va «ZiyoNet» axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbarlar:

Turayev Xayit Xudaynazarovich
kimyo fanlari doktori, professor

Aliqulov Rustam Valiyevich
kimyo fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Turayev Zokirjon
texnika fanlari doktori, professor

Shukurov Dilmurod Xursandovich
texnika fanlari falsafa doktori

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/31.01.2023.K/T.78.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning « 01 » 04 2025-yil soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 190111, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel.: (+99876) 221-74-55, faks: (+99876) 221-71-17, e-mail: termizdu@umail.uz

Dissertatsiya bilan Termiz davlat universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (№ 282 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 190111, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel.: (+99876) 221-74-55, faks: (+99876) 221-71-17, e-mail: termizdu@umail.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil « 18 » 03 kuni tarqatildi.
(2025-yil « 18 » 03 dagi 1- raqamli reyestr bayonnomasi).



I.A.Umbarov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, t.f.d., prof.

Sh.A.Kasimov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi, k.f.d., prof.

L.S.Kamolov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, k.f.d., prof.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotasiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyoda kimyo sanoati jadal rivojlanib, ishlab chiqarish jarayonlari natijasida hosil boʻladigan chiqindilar, xususan, ogʻir metallarning atrof-muhitga chiqarilishi oqibatida oqova suvlar va hududlarning tuproqlari ifloslanishi dolzarb ekologik muammo sifatida eʼtirof etilmoqda. Shu boisdan, oqova suvlar va texnologik eritmalardan ogʻir metallarni ajratib olish uchun organik va noorganik materiallar asosida koʻp funksiyali sorbentlar yaratish dolzarb ilmiy yoʻnalishlardan biri hisoblanadi. Metall ionlarini yutuvchi sorbentlar ishlab chiqarish texnologiyalari va ularning turlari sezilarli darajada kengaymoqda. Biroq, ishlab chiqarish hajmlarining ortishi va sanoat tarmoqlarining rivojlanishi sababli bunday sorbentlarga boʻlgan talab ham oshib bormoqda. Ushbu sharoitda yuqori samaradorlikka ega, ekologik xavfsiz va iqtisodiy jihatdan maqbul sorbentlarni ishlab chiqarish sohasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda tarkibida aminoguruh boʻlgan organik moddalar va mineral matritsalariga immobillash asosida tanlovchan va yuqori samarali sorbentlar yaratishga yoʻnaltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, mineral va organik komponentlar asosida organo-noorganik polifunksional sorbentlarni olish, ular yordamida eritmalardan oraliq metallarni kompleks hosil qiluvchi sorbsion usullar yordamida ajratish, sintez qilingan sorbentlarning metallarni eritmalardan ajratish samaradorligi, olingan metall-sorbent birikmalarining qoplamalar, qurilish materiallari va boshqa sanoat tarmoqlarida qoʻllash imkoniyatlari tizimli tahlil qilinmoqda, ushbu materiallarning eritmalardagi va termik barqarorlik xususiyatlarini aniqlash hamda qoʻllanilish doirasini kengaytirishga alohida eʼtibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda kimyo sanoatining yangi turdagi materiallar ishlab chiqarish yoʻnalishida sezilarli natijalarga erishilmoqda. Xususan, mahalliy bozorni import oʻrnini bosuvchi kimyoviy reagentlar bilan taʼminlash boʻyicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Respublikamizda innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish orqali sanoat obyektlarini samarali boshqarishning ilmiy asoslangan tizimini joriy etish hamda atrof-muhitni muhofaza qilish boʻyicha kompleks dasturlar ishlab chiqilmoqda va izchil amalga oshirilmoqda. “Yangi Oʻzbekistonning 2022–2026-yillardagi taraqqiyot strategiyasida”¹ iqtisodiyotni rivojlantirish ustuvor yoʻnalishlari belgilangan boʻlib, mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash orqali yuqori qoʻshimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni jadallashtirish, sifat jihatdan yangi mahsulotlar va innovatsion texnologiyalar yaratish masalalari alohida belgilangan. Shu munosabat bilan milliy iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridan biri boʻlgan kimyo sanoatini rivojlantirishda organik moddalar va mineral matritsalar asosida tanlovchan organo-noorganik polifunksional sorbentlar yaratish, ular yordamida metallarni ajratish va tadqiq etish muhim ahamiyatga ega.

¹Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi Farmoni

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni, 2017-yil 29-avgustdagi PQ-3264-son “Kimyo sanoati tashkilotlarining eksport-import faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va 2020-yil 12-avgustdagi PQ-4805-son “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta‘lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. «Kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Xorijda organo-noorganik va kompozit sorbentlar sintezi hamda ularning og‘ir metallarni sorbsiyalashiga oid tadqiqotlar keng miqyosda olib borilmoqda. Jumladan, Rossiyalik tadqiqotchilar A.A.Melnikov, N.E.Gordina, A.P.Sinitsin, G.I.Gusev, A.A.Gushchin va R.N.Rumyansevlar vermikulitning mexanokimyoviy qayta ishlanishi, uning strukturasiidagi suvli fazalarning o‘zgarishi va sorbsiya qobiliyatini o‘rganganlar. Xitoyning Janubiy Xitoy Texnologiya Universitetidan Liya Chen boshchiligidagi bir guruh olimlar, shuningdek, Saudiya Arabistoni tadqiqotchilari A.Saleh, A.Sari va M.Tuzen tomonidan xitosan/vermikulit asosidagi yangi turdagi biokompozit sintez qilinib, uning qo‘rg‘oshin va kadmiyni ajratib olishdagi samaradorligi o‘rganilgan. Bundan tashqari, Turkiyaning Yalova universiteti tadqiqotchilari Nergiz Kanman va Pelir Demirchi suvda eruvchan organik bo‘yoq - malaxit yashilini chiqarib tashlash uchun vermikulit va Cu metall-organik ramka kompozitini sintez qilish bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan. Shunga o‘xshash ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlari dunyoning boshqa mamlakatlarida ham amalga oshirilgan.

Respublikamizda vermikulit mineralini tadqiq qilish va uning asosida turli kimyoviy kompozitlar yaratish bo‘yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, A.T.Jalilov tomonidan vermikulit mineralining umumiy xossalari va tarkibi o‘rganilgan, B.G‘.Mahkamov va D.A.G‘afurova tomonidan vermikulitning organik o‘zgartirish usullari hamda uning sorbsiya qobiliyatlari tadqiq etilgan. X.X.Turayev va P.J.Tojiyev vermikulitni organik moddalarga qo‘llash bo‘yicha izlanishlar olib borgan bo‘lsa, X.S.Beknazarov vermikulit asosida antikorrozion materiallar yaratish ustida ishlagan. Shuningdek, F.N.Nurqulov vermikulitdan foydalanib termoizolyatsion qurilish kompozitlari va antipiren materiallar sintez qilish, Sh.D.Shirinov gidrolizlangan poliakrilonitrilning xossalari o‘rganish bo‘yicha ilmiy ishlanmalar amalga oshirgan. Biroq, mamlakatimizda vermikulitning organik birikmalar bilan modifikatsiyalash hamda metall ionlariga nisbatan sorbsiya xususiyatlarini chuqur tadqiq qilish yo‘nalishida olib borilgan ishlanmalar kam bo‘lib, ushbu sohada tizimli tadqiqotlar o‘tkazish dolzarb ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Termiz davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining ITD-12 «Kompleks hosil qiluvchi polifunksional ionitlar sintezi va ular yordamida ba'zi d-metallarni ajratishning nazariy asoslari» (2017-2020 yy.) mavzusidagi fundamental loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi tarkibida aminoguruh tutgan organik moddalar bilan modifikatsiyalangan vermikulit asosidagi organo-noorganik sorbentlar olish texnologiyasini ishlab chiqish va qo'llashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

vermikulitni termik va mikroto'liqlik usulda kengaytirish hamda tarkibidagi kimyoviy bog'langan suvni yo'qotish va kengaytirilgan vermikulitni kuchli kislotalar (HCl va H₂SO₄) bilan kimyoviy faollantirish;

faollantirilgan vermikulitni gidrolizlangan poliakrilonitril bilan modifikatsiyalash;

gidrolizlangan poliakrilonitril bilan modifikatsiyalangan vermikulit va turli amin guruh tutgan moddalar bilan polifunksional sorbentlar olish;

olingan organo-noorganik tarkibli polifunksional sorbentlarning kimyoviy va termik barqarorligini aniqlash;

olingan organo-noorganik tarkibli polifunksional sorbentlar yordamida mis (II) ionlarini suvli eritmalaridan ajratib olish va sorbsiya jarayoni tadqiqoti;

aminoguruh tutgan, vermikulit asosli polifunksional sorbentlar olish texnologiyasini ishlab chiqish va texnik-iqtisodiy samaradorligini asoslash.

Tadqiqotning obyekti sifatida Tebinbuloq koni vermikuliti va tarkibida aminoguruh tutgan organik moddalar bilan modifikatsiyalangan vermikulit asosidagi sorbentlar olingan.

Tadqiqotning predmeti vermikulitni termik va mikroto'liqlik usulda kengaytirish, kuchli kislotalarda faollantirish, tarkibida aminoguruh tutgan organik birikmalar bilan modifikatsiyalash orqali organo-noorganik sorbentlar olish, eritmalarda metall yutgan sorbent, ularning tarkibi, tuzilishi va fizik-kimyoviy xossalari tadqiqoti hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda IQ-spektroskopiya, Raman spektroskopiya, TGA-DTA tahlil, skanerlovchi elektron mikroskopiya (tasviri, element tahlili), Mak-Ben-Bakra vakuumli qurilmasida adsorbsiya-desorbsiya (suv, benzol bug'i) tahlili kabi zamonaviy nazariy va eksperimental tadqiqot usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

vermikulitni termik va mikroto'liqlik usulda kengaytirishning maqbul sharoitlari aniqlangan, vermikulitni mikroto'liqlik usulda kengaytirishda uning tarkibidan suvning yo'qotilgan miqdori suv va vodorod peroksid eritmalarini bilan ishlov berishga bog'liq ekanligi quyidagi tartibda oshib borishi isbotlangan: tabiiy holatda < suv < 10% li H₂O₂ < 20% li H₂O₂ ≤ 25% li H₂O₂;

kengaytirilgan vermikulit kuchli kislotalarda faollantirilganida sirt yuzasining kengayishi kislota konsentratsiyasiga bog'liq holda ortib borishi fizik-kimyoviy usullar bilan aniqlangan;

vermikulit, gidrolizlangan poliakrilonitril va aminoguruh tutgan moddalar asosida sorbentlar olishning maqbul sharoitlari aniqlangan va yangi VM/GP/DEA; VM/GP/U; VM/GP/M polifunksional sorbentlar olingan;

tarkibida aminoguruh tutgan organik moddalar va vermikulit asosida olingan yangi polifunksional sorbentlarning Cu(II), Zn(II) va Ni(II) ionlariga nisbatan statik va dinamik almashinish sig'implari aniqlangan hamda sorbentlarning metallarga tanlab ta'sir etuvchanlik qatori tuzilgan;

olingan sorbentlardan sanoat oqova suvlari tarkibidan Cu(II) ionlarini samarali sorbsion ajratish uchun VM/GP/DEA sorbentini olish texnologiyasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

mahalliy mineral xomashyo – vermikulitni organik modifikatsiyalab yangi polifunksional sorbentlar olingan;

vermikulitni kengaytirish, organik birikmalar bilan modifikatsiyalash orqali yangi polifunksional sorbentlar olishning texnologik sxemasi ishlab chiqilgan va texnik-iqtisodiy samaradorligi asoslab berilgan;

olingan organo-noorganik polifunksional sorbentlar pH ning turli qiymatlarida mis(II) va rux(II) ionlarini eritmalaridan yutishi aniqlangan;

olingan sorbent sanoat suvlarini tayyorlashda, shuningdek, atrof-muhit ob'yektlari va texnologik eritmalarda mis(II) ionlarini ajratib olishi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi IQ-spektroskopiya, Raman spektroskopiya, UB nur orqali optik zichliklarni aniqlash, termogravimetrik tahlil, differensial termik tahlil, skanerlovchi elektron mikroskop, energiya dispers tahlil, Mak-Ben-Bakra vakuumli qurilmasida suv bug'i va benzol bug'i yordamida adsorbsiya-desorbsiyasi, N₂ yordamida sovuq adsorbsiya va haroratli desorbsiya izotermalari va g'ovaklik o'lchamlari tahlili kabi zamonaviy usullar yordamida eksperimental natijalar olinganligi bilan asoslangan. Shuningdek, eksperiment natijalari xalqaro ma'lumotlar bazalariga kiritilgan nufuzli ilmiy nashrlarda chop etish bilan tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mahalliy mineral xomashyo – vermikulitni termik va mikroto'lqinli usulda kengaytirish hamda kuchli kislotalar yordamida faollantirishning samarali usullari va optimal sharoitlarini aniqlash bilan birga, aminoguruh tutuvchi organik moddalar asosida ion almashinuvchi polifunksional organo-noorganik sorbentlarning sorbsion xususiyatlarini o'rganish natijalari bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan organo-noorganik sorbentlardan foydalanib, respublikamiz gidrometallurgiya korxonalarida chiqindi eritmalaridagi kam miqdordagi qimmatbaho metallarni samarali ajratib olish va sanoat oqova suvlarini tozalash jarayonlarida qo'llash imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotlarning joriy qilinishi. Gidrolizlangan poliakrilonitril bilan modifikatsiyalangan vermikulit va turli aminoguruh tutgan moddalar yordamida polifunksional sorbentlar olish va uning fizik-kimyoviy, sorbsion xossalari o'rganish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

faollantirilgan vermikulitni aminoguruh tutgan organik moddalar bilan modifikatsiyalab olingan yangi sorbentlar “Muborak gazni qayta ishlash zavodi” MCHJ amaliyotiga joriy qilingan (“Muborak gazni qayta ishlash zavodi” MCHJning 2024-yil 04-sentyabrdagi 840/G‘K-09 ma’lumotnomasi). Natijada ishlab chiqarishdagi chiqindi suvlar tarkibidan og‘ir metallarni ajratib olish imkonini bergan;

olingan yuqori sorbsiya quvvatiga ega sorbentlar “Muborak gazni qayta ishlash zavodi” MCHJ da ishlab chiqarishga joriy qilingan (“Muborak gazni qayta ishlash zavodi” MCHJning 2024-yil 04-sentyabrdagi 840/G‘K-09 ma’lumotnomasi). Natijada laboratoriya-sinov natijalari asosida ishlab chiqarishdagi chiqindi suvlar tarkibidan og‘ir metallarni ajratib olish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Mazkur tadqiqot ishi natijalari 17 ta, jumladan 7 ta xalqaro va 10 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda ma’ruza qilingan va muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 26 ta ilmiy ish chop etilgan, shundan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta, jumladan 4 ta maqola respublika, 5 ta maqola xoijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 107 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, maqsad va vazifalar, tadqiqot ob’ektlari va predmetlari berilgan, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etish istiqbollari bo‘yicha xulosa qilingan hamda chop etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining “**Modifikatsiyalangan vermikulit asosida sorbentlar olish va qo‘llashning zamonaviy holati**” deb nomlangan birinchi bobida vermikulit asosidagi sorbentlarning olinishi va ishlatilishi, vermikulit asosida olingan organo-noorganik, kompozit sorbentlar, azot tutgan sorbentlarning metallar sorbsiyasida qo‘llanilishiga doir adabiyotlar tahlil qilingan. Bunda vermikulitning strukturaviy xususiyatlari, xossalari, sirt modifikatsiyasi, interkalatsiya/eksfoliatsiya, strukturani tartibga solish, funktsional qo‘llanilishiga e’tibor qaratilgan.

Dissertatsiya ishining “**Gidrolizlangan poliakrilonitril bilan modifikatsiyalangan vermikulit va turli amin guruh tutgan moddalar yordamida polifunksional sorbentlar olish**” deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot uchun tanlangan obyektlar, tadqiqot usullari hamda qo‘llanilgan asboblar-uskunalar, Tebinbuloq koni vermikulitini termik ishlov berish orqali kengaytirish, kengaytirilgan vermikulitni kuchli kislotalar bilan faollantirish, faollantirilgan

vermikulitni gidrolizlangan poliakrilonitril bilan modifikatsiyalash, modifikatsiyalangan vermikulitni azot va kislorod tutgan organik monomerlar bilan o'zgartirish orqali sorbentlar olish bo'yicha o'tkazilgan tajribalarning bayoni keltirilgan.

Vermikulitni termik kengaytirish. Vermikulitni kengaytirish uchun termik ishlov berilganda, massa yo'qotishari 100-900°C harorat oralig'ida, maydalangan, distillangan suvda yuvib tozalangan va quritilgan vermikulit namunalari bilan olib borildi. Termik kengaytirish fizik va kimyoviy o'zgarishlar borganligi 2.7-rasmda keltirilgan xom vermikulit va g'ovaklashtirilgan vermikulitning infraqizil spektrlarida ko'rinadi.



1-rasm. Tebinbuloq koni vermikulitining IQ-spektrlari, tabiiy(a) va g'ovaklashtirilgan (b) holatda

Tabiiy holatdagi vermikulit (a) tahlilida 1056,99 sm^{-1} tebranish cho'qqilarida valent bog'langan Si-O bog'lari hamda gidroksil guruhga tegishli tebranishlarni kuzatish mumkin. Termik kengaytirilgan vermikulit namunasida 2985,81 va 2885,51 sm^{-1} tebranish sohalarida H bog' hosil qilgan, keng va intensiv, valent bog'lanishli O-H guruhlariga tegishli biroz siljigan tebranish cho'qqilarini kuzatish mumkin.

Vermikulitni mikroto'lqinli isitish orqali kengaytirish. Vermikulitni mikroto'lqinli nurlanish orqali kengaytirish 5 daqiqa davomida, 700 Vt quvvatda olib borildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, mikroto'lqinli tizim termik eksfoliatorlarga nisbatan mos ravishda taxminan 80% va 75% energiya tejash imkonini beradi.


Tabiiy xom vermikulitni mikroto'lqinli modifikatsiyalashda avval suv va vodorod peroksid eritmalari bilan ishlov berish uning tarkibidagi turli holatda bog'langan suvning chiqib ketishidagi ta'siri quyidagi tartibda oshib boradi: tabiiy holatda < suv < 10% li H_2O_2 < 20% li H_2O_2 ≤ 25% li H_2O_2 .

Kengaytirilgan vermikulitga kislotali ishlov berish. Ushbu ishda vermikulitni xlorid kislota bilan faollantirishning ikki xil usuli ko'rib chiqildi: xona haroratida va 60°C dan yuqori haroratda (mexanik ishlov berish orqali).

Kengaytirilgan vermikulitni xona haroratida xlorid kislota bilan faollantirish. Vermikulit 10%; 17% va 36% li xlorid kislota eritmasiga 48 soatga botirib qo'yildi. Vermikulitni filtrlab, sodali suv yordamida neytrallandi.

Xlorid kislota bilan termokislotali faollantirish. Xlorid kislota bilan ishlov berish turli vaqt birliklarida (2, 6, 10, 12, 14 soat) va kislotaning turli konsentratsiyalarida (1%, 7%, 12%, 20% va 36% li) amalga oshirildi. Natijada, 7% li eritmada, 6 soat davomida, 70°C harorat hamda 550 ayl/min. tezlikda aralashtirib turgan holda faollantirish eng maqbul sharoit sifatida tanlangan.

VM/GP/U sorbentining 1:2:0,3 massa nisbati, muhit pH-7,5 va harorat 75°Cda olingan namunasida reaksiya unumi yuqori bo'lganligi aniqlandi. Boshlang'ich moddalar nisbati 1:2:0,3 massa nisbatida olingan sorbent namunasida statik almashinish sig'imi (Cu^{2+}) eng yuqori – 9,2 mg-ekv/g ko'rastkichga ega ekanligi aniqlandi. Olingan sorbentning tahlillari asosida reaksiya tenglamasi tuzildi.




5-rasm.VM/GP/U organo-noorganik sorbentining hosil bo'lish reaksiyasi

**2-jadval
KFVM/GP/U sorbenti statik almashinish sig'imining vaqtga va dastlabki moddalar nisbatiga bog'liqligi (Cu^{2+} , $T=80^\circ\text{C}$)**

KFVM/GP:U (mass.nisb.)	Vaqt (soat)				
	1	1,5	2	2,5	3
1:1:0,1	7,8	8,1	8,9	8,1	8,0
1:2:0,3	8,8	8,9	9,2	9,0	8,8
2:2:0,5	8,5	8,8	9,0	8,4	8,5
2,5:1:1	5,5	5,8	5,9	5,4	5,6
2,5:2:1	4,2	4,5	4,8	4,8	4,9

VM/GP/M organo-noorganik sorbenti bir nechta massa nisbatlarini o'zgartirib namunalari olindi. Olingan namunalarning reaksiya unumini vaqtga va haroratga bog'liqligi hamda statik almashinish sig'imi bo'yicha ma'lumotlari o'rganildi (3-jadval).



6-rasm.VM/GP/M organo-noorganik sorbentining hosil bo'lish reaksiyasi

**3-jadval
VM/GP/M sorbenti statik almashinish sig'imining harorat va dastlabki moddalar massa nisbatiga bog'liqligi (Cu^{2+} , $\tau = 2$ soat)**

KFVM:GP:M (massa nisbatida)	Harorat($^\circ\text{C}$)				
	50	60	70	80	85
1:0,1:0,1	4,3	5	6,5	7,5	7,2
1:2:0,5	4,8	5,1	7,2	8,2	7,8
1:2:0,8	4,0	5,3	6,7	7,8	7,3
2:2,5:1	3,3	4,8	7,1	7,2	6,8
1:2:1,5	3,1	4,6	6,8	7,1	6,9


VM/GP/M sorbentining 1:2:0,5 massa nisbati, 80°C da olingan namunasida reaksiya unumi yuqori bo'lganligi aniqlandi. Namunalarning sorbsion sig'imi Cu^{2+} , Ni^{2+} va Zn^{2+} kationlariga nisbatan o'rganilganda CuCl_2 eritmasida yuqori (8,2 mg-ekv/g) ekanligi aniqlandi. Olingan sorbentning tahlillari asosida reaksiya tenglamasi tuzildi.

Dissertatsiyaning “Modifikatsiyalangan vermikulit asosida olingan sorbentlarning termik, fizik-kimyoviy va sorbsion xossalari tadqiqoti” deb


nomlangan uchinchi bobida modifikatsiyalangan vermikulit asosida olingan sorbentlarning termik xossalarini o'rganish, modifikatsiyalangan vermikulit asosida olingan sorbentlarning fizik-kimyoviy xossalari tadqiqoti, olingan sorbentlarning sirt-yuza kattaligi va sorbsion xossalarini aniqlash natijalari yoritilgan.

Sintez qilingan sorbentlarning kvant-kimyoviy tahlili. Kimyoviy birikmalarda "tarkib-tuzilish-xossa" tizimini o'rganish natijasida kompleks birikmalarning xossalari, tarkibi va molekula tuzilishini tadqiqotlar davomida nazariy tahmin qilish mumkin. Bunday ma'lumotlar tanlangan xossa, tarkib va tuzilishga ega bo'lgan kompleks birikmalarni sintez qilishga yordam beradi.

VM/GP/DEA, VM/GP/U va VM/GP/M sorbentlarning geometrik optimizatsiyasi Avogadro dastur to'plami yordamida hosil qilingan out fayl yordamida GaussView 6.0.16 dasturiy ta'minotidan foydalangan holda Popl bazis to'plami - RHF/6-311G(d, 2p) yordamida to'liq optimallashtirildi. DFT (B3LYP) usulidan foydalanib GaussView 6.0.16 hisob-kitoblarning natijalari Mulliken usuli va barcha atomlardagi zaryadlarni hisoblash uchun chegaraviy molekulyar orbital (ChegMO) yaqinlashuvidan foydalanildi.




7-rasm. VM/GP/DEA sorbentining mulliken zaryad taqsimoti



9-rasm. VM/GP/M sorbentining mulliken zaryad taqsimoti


Organik birikmalarning reaksiyon qobiliyatini baholashda qo'llaniladigan indeksning asosiylaridan biri chegaraviy MO-lardagi (ChegMO) elektron zichlik. Yuqori band molekulyar orbital (YuBMO) va quyi bo'sh molekulyar orbital (QBMO) chegaraviy molekulyar orbitallar hisoblanadi. YuBMO-da elektron zichligi yuqori bo'lgan atom elektronodonor atom hisoblanadi va elektrofil reaksiyon markaz




8-rasm. VM/GP/U sorbentining mulliken zaryad taqsimoti

Reaksiyon qobiliyatda molekula atomlaridagi zaryad taqsimotlari muhim ahamiyat kasb etadi, ya'ni ular molekulaning elektrofil va nukleofil markazlarini bashorat qilishda muhim rol o'ynaydi. Shuni e'tiborga olgan holda, zaryad hisoblashning keng tarqalgan usuli – Mulliken usuli bo'yicha VM/GP/DEA, VM/GP/U va VM/GP/M molekulari atomlarining umumiy zaryadlari hisoblab chiqildi.


hisoblanadi. QBMO-da elektron zichligi yuqori bo'lgan atom elektronoakseptor atom hisoblanadi va nukleofil reaksiya markazi hisoblanadi.



10-rasm. VM/GP/DEA sorbentining YuBMO va QBMO lari.



11-rasm. VM/GP/U sorbentining YuBMO va QBMO lari.




12-rasm. VM/GP/M sorbentining YuBMO va QBMO lari.

VM/GP/DEA sorbentining termik tahlili. VM/GP/DEA sorbentining DTA tahlilida uch bosqichda massa yo'qotish yuz bergan va bitta ekzotermik hamda bitta endotermik jarayon yuz bergan. Birinchi bosqichda 6,157% massa yo'qotilish 25,85-136,7°C da kuzatildi (8-rasm).

Olingan sorbentlarning termogravimetrik tahlili

Namuna	Harorat (C°)	Massa yo‘qotilishi (%)	Umumiy massa yo‘qotilishi
VM/GP/MEA	25.85-136.70	6.157	37.125%
	136.70-502.52	24.484	
	502.52-801.13	6.484	
VM/GP/M	28.46-262.25	21.164	72.579%
	262.25-490.83	25.825	
	490.83-801.73	25.590	
VM/GP/U	21.82-267.76	22.46	69.75%
	267.76-497.59	27.768	
	497.59-801.68	19.522	
VM/GP/DEA	35.10-279.26	25.764	81.21%
	279.26-801.68	55.446	
VM/GP/TEA	17.70-199.21	22.830	46.14%
	199.21-597.27	14.958	
	597.27-901.78	8.352	


VM/GP/DEA sorbentining SEM tahlili. Skanerlovchi elektron mikroskop (SEM) va element analizi yordamida VM/GP/DEA sorbentining 10 μ m, 50 μ m, 100 μ m kattalikdagi sirt morfologiyasi va element tarkibi tahlil qilindi.



13-rasm. VM/GP/DEA sorbentining SEM tahlili: 100 μ m tasvirlari


Sorbentning sirt morfologiyasi tahlilining 100 μ m kattalashtirilgan va to‘rt xil fokusdan olingan tasvirlarida qatlamlar sirti va oralig‘idagi g‘ovaklar yaqqol ko‘rinadi. SEM tasvirlarida vermikulitning qatlamlari va unga birikkan GIPAN va DEA zarralari aks etgan.

VM/GP/DEA sorbentining rentgen fazaviy tahlili. VM/GP/DEA sorbentining rentgen fazaviy tahlilidagi X-nurlarining diffraksiyasidan (XRD) hosil bo‘lgan birikmalarning tebranish cho‘qqilari bir chiziq bo‘ylab harakatlanganini va aniq cho‘qqilar berganini kuzatishimiz mumkin.




14-rasm. VM/GP/DEA sorbentining rentgen fazaviy tahlili: asosiy grafik va donut diagramma tahlil ko‘rinishida

VM/GP/M sorbentining energiya dispers spektroskopiya tahlili. VM/GP/M sorbentining element tahlilida kislorod intensiv cho‘qqi namoyon qilgan, uglerod spektri tarkibdagi organik moddalar hisobiga, N esa GIPAN tarkidagi sian va amid guruh hamda melamin tarkibidagi amin guruhidagi azot hisobiga ko‘ringan. Kremkiy va metallar esa vermikulit tarkibidagi oksidlar hisobiga aks etadi.



15-rasm. VM/GP/M sorbentining energodispersion spektroskopiya tahlili.

VM/GP/U sorbenti SEM tahlili. SEM va element tahlili yordamida urotropin va gidrolizlangan poliakrilonitril bilan modifikatsiyalangan vermikulit kompozitini 5 μ m, 10 μ m, 50 μ m va 200 μ m o‘lchamdagi sirt yuza tasvirlari olindi.



16-rasm. VM/GP/U sorbentining SEM tahlillari: a) 5 μ m b) 10 μ m; c) 50 μ m va d) 200 μ m o‘lchamdagi tasviri

VM/GP/U kompozit sorbentining SEM tahlillarida asosan sorbentning g‘ovaksimon bo‘rtiq ustidagi mikrog‘ovaklari qatlamsimon ko‘rinishhda joylashgan tasvirlar ko‘ringan.

Suv bug‘i va benzol bug‘i yordamida adsorbsiya izotermalari va g‘ovaklik o‘lchamlari tahlili. VM/GP/U va VM/GP/M sorbentlarining adsorbsiyaviy va desorbsiyaviy xususiyatlarini o‘rganish uchun Mak-Benn-Bakra qurilmasida suv bug‘i bosimi yordamida hisoblashlar amalga oshirildi. Shuningdek, BET (Brunauer-Emmett-Teller) usuli asosida sorbentlarning o‘ziga xos sirt maydoni aniqlash uchun izotermalar tayyorlandi. Natijada, sorbentlarning sirt-yuza kattaligi va g‘ovaklik xususiyatlari bo‘yicha tahlillar o‘tkazildi.

5-jadval


Olingan sorbentlarning BET usulida hisoblab topilgan kattaliklari

Sorbent	Monoqavat sig‘imi, mol/kg	S, solishtirma yuza, m ² /g	Mikro-g‘ovak, W0	To‘yinish hajmi, Vs	Mezo-g‘ovak, Wme	G‘ovak radiusi, Å
						nm
VM/GP/M	0,122	7,90	0,014855	0,04608	0,03	116,6
						11,66
VM/GP/U	1,304	84,79	0,0913214	0,174312	0,08	41,1
						4,11
VM/GP/DEA	0,193	46,59	0,037507	0,0471545	0,01	20,2
						2,02

VM/GP/M sorbentining N₂ yordamida sovuq adsorbsiya va haroratli desorbsiya izotermalari hamda g‘ovaklik o‘lchamlari tahlili. VM/GP/M sorbentining o‘ziga xos sirt maydonini tahlil qilish uchun gaz turi azot bo‘lgan qurilma (Quantachrome Autosorb iQ AG, AQSH) dan foydalanildi. Tahlil shartlari: namuna og‘irligi - 0,1078 g, gazni berish vaqti – 1,2 soat, davomiyligi - 3 soat 0,1 daqiqa.


Sintez qilingan sorbentning nisbiy sirt maydoni monoqatlamda adsorbsiyalangan gazning massasi va hajmi yordamida aniqlangan bo‘lib, u 3,05 m²/g ni tashkil etdi.

VM/GP/M sorbentining g‘ovak hajmi, yarim g‘ovak kengligini aniqlash uchun DFTmetodi bo‘yicha hisoblari olindi.



17-rasm. BET tenglamasining chiziqli koordinatalaridagi VM/GP/M sorbentiga yutilgan N₂ gazining adsorbsiya izotermasi

Cu(II) ionini yutgan VM/GP/DEA sorbentining SEM va element tahlili. Kengaytirib, faollantirilgan vermikulitni GIPAN va DEA bilan modifikatsiyalash orqali olingan sorbentda mis sulfat tuzi sorbsiyalandi. Cu(II) ionlarini yutgan sorbent quritildi va SEM, element tahlili, energiya dispersion va raman spektroskopiya tahlillari o‘tkazildi.




18-rasm. Cu²⁺ ionini yutgan VM/GP/DEA sorbentining SEM va energiya dispersion spektroskopiya tahlili

Dissertatsiyaning “**Modifikatsiyalangan vermikulit asosida sorbentlar olish texnologiyasi va texnik-iqtisodiy asoslash**” deb nomlangan to‘rtinchi bobida

modifikatsiyalangan vermikulit asosida sorbentlar olish texnologiyasi hamda texnik-iqtisodiy asoslar berilgan.

Modifikatsiyalangan vermikulit asosida sorbentlar olish texnologiyasi. Termiz davlat universiteti va Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy-tadqiqot institutida vermikulit asosidagi sorbentlar olish texnologiyasi ishlab chiqildi (19-rasm).



19-rasm. Modifikatsiyalangan vermikulit asosida sorbentlar olish texnologiyasi

1-vermikulit; 2-vermikulitni yuklash uchun shnekli ko‘targich; 3-kuydirish pechi; 4-kuydirilgan vermikulit; 5-vermikulitga kislotali faollashtirish uchun reaktor; 6-xlorid kislota uchun sig‘im; 7-vermikulitni neytrallashtirish va yuvish uchun vanna; 8-faollashtirilgan vermikulitni modifikatsiyalash uchun reaktor; 9-GIPAN uchun sig‘im; 10-aminlar uchun sig‘im; 11-suv uchun sig‘im; 12-quritish pechi; 13-granulyator 14-tayyor sorbent

Modifikatsiyalangan vermikulit asosida sorbentlar olish uchun vermikulit (1) shnekli ko‘targich (2) yordamida kuydirish pechi (3) ga yuklanadi. 900°C da kuydirishdan so‘ng vermikulitning hajmi kengayadi va keyingi bosqichlar uchun tayyorlanadi. Kuydirilgan vermikulit maxsus reaktorda kislotalar (6-xlorid kislota yoki 7-sulfat kislota) yordamida faollashtiriladi. Bu jarayon vermikulitning fizik va kimyoviy xususiyatlarini yaxshilaydi. Kislotali faollashtirishdan so‘ng, vermikulit neytrallashtirish uchun yuvish vannasi (8) da suv bilan yuviladi. Bu bosqichda material kislotalar qoldiqlaridan tozalanadi va zararsizlantiriladi. Faollashtirilgan vermikulit reaktor (9) ga yuklanadi va reaktorda GIPAN (10), turli aminlar (11) va suv (12) bilan aralashiriladi hamda modifikatsiyalash jarayoni amalga oshiriladi. Modifikatsiyalangan vermikulit quritish pechi (13) da quritiladi va granulyator (14) yordamida presslangan granula shakliga keltiriladi.

Modifikatsiyalangan vermikulit asosida sorbentlar olishning texnik-iqtisodiy asoslari. 6-jadvalda modifikatsiyalangan vermikulit asosida sorbentlar ishlab chiqarish uchun sarflanadigan xomashyolarning narxlari keltirilgan.

6-jadval**Modifikatsiyalangan vermikulit asosida VM/GP/DEA markali sorbent ishlab chiqarish uchun xomashyo narxlari**

№	Xomashyo	1 kg xom ashyo narxi, so'm	1 kg sorbent olish uchun xomashyo, kg	Jami summa
1	Vermikulit	4 000,0	650	2 600 000,0
2	Xlorid kislota	30 000,0	20	600 000,0
3	GIPAN	5 000,0	330	1 650 000,0
4	Dietanolamin	25 000,0	15	375 000,0
5	Malein anhidrid	20 000,0	5	100 000,0
6	Suv	200,0	2 000	400 000,0
Jami				5 725 000,0

6-jadvaldan ko'rinadiki, modifikatsiyalangan vermikulit asosida 1 kg VM/GP/DEA markali sorbent ishlab chiqarish uchun 5 725 000,0 so'mlik xomashyo sarflanadi.

7-jadval**Modifikatsiyalangan vermikulit asosida ishlab chiqarilgan 1 kg VM/GP/DEA markali sorbentning tannarxi**

Nomlari	Xarajat, so'mda
Xomashyolar	5 725 000,0
Ish haqi	500 000,0
Yagona ijtimoiy to'lov 15%	75 000,0
Ishlab chiqarish xarajatlari	2 000 000,0
Foyda, 10%	830 000,0
QQS, 15%	1 369 500,0
Jami	10 499 500,0

Modifikatsiyalangan vermikulit asosida ishlab chiqarilgan 1 kg VM/GP/DEA markali sorbentning tannarxi 10 499 500,0 so'mni tashkil etadi (7-jadval).

XULOSALAR

1. Tabiiy vermikulitni suv va vodorod peroksid ning 10%; 20%; 25% li eritmaları bilan to'yintirilib, mikroto'lqinli isitish usulida kengaytirishning maqbul sharoitlari o'rganildi hamda kengaytirilgan vermikulit HCl va H₂SO₄ larda faollantirildi.

2. Faollantirilgan vermikulitni gidrolizlangan poliakrilonitril va azot tutgan moddalar bilan modifikatsiyalash orqali polifunksional VM/GP/DEA, VM/GP/U, VM/GP/M tarkibli organo-noorganik sorbentlari sintez qilindi.

3. Sintez qilingan organo-noorganik tarkibli polifunksional sorbentlar va ularning Cu(II), Ni(II) va Zn(II) ionlari bilan hosilgan kompleks birikmalarning takibi va tuzilishini IQ-, Raman spektroskopiya, Skanerlovchi elektron mikroskop va rentgen fazaviy tahlili yordamida taklif qilindi shuningdek, termik barqarorligi VM/GP/DEA<VM/GP/M<VM/GP/U qatorida ortib borishi termogravimetrik tahlil va differensial termik tahlillari orqali o'rganildi.

4. Sintez qilingan organo-noorganik tarkibli polifunksional sorbentlarning sorbsion xossalari: statik almashinish sig'imi VM/GP/U<VM/GP/DEA<VM/GP/M

ketma-ketligida oshib borishi va metallarni sorbsiyalash tanlovchanligi $Zn(II) < Ni(II) < Cu(II)$ qatorida ortib borishi aniqlandi shuningdek, izotermalari hamda g'ovaklik o'lchamlari BET (Brunauer-Emmett-Teller) usulida hisoblandi unga ko'ra VM/GP/M sorbenti g'ovak hajmi, $0,006 \text{ sm}^3/\text{g}$, sirt yuzasi $2,958 \text{ ml/g}$ ga teng ekanligi aniqlandi.

5. Olingan sorbentlarning sintez qilish jarayonlarining texnologiyasini ishlab chiqildi hamda ularni texnik-iqtisodiy samaradorligini hisoblandi.

6. Tarkibida azot tutgan organik moddalar bilan modifikatsiyalangan vermikulit asosida olingan VM/GP/DEA; VM/GP/U; VM/GP/M sorbentlari "Muborak gazni qayta ishlash zavodi" AJ, markaziy laboratoriyasida sinovdan o'tkazildi va tabiiy gazni nordon komponentlardan tozalash jarayonida hamda oqova suvlar tarkibidagi og'ir metall ionlarini ajratish bo'yicha ijobiy xulosalar olindi va ishlab chiqarishga joriy etildi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ НА БАЗЕ НАУЧНОГО СОВЕТА
DSc.03/31.01.2023.К/Т.78.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ
ПРИ ТЕРМЕЗСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

ТЕРМЕЗСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ХОЛМУРОДОВА САБОХАТ АЛМАХМАТОВНА

**РАЗРАБОТКА ТЕХНОЛОГИИ ПОЛУЧЕНИЯ ОРГАНО-
НЕОРГАНИЧЕСКИХ СОРБЕНТОВ НА ОСНОВЕ ВЕРМИКУЛИТА,
МОДИФИЦИРОВАННОГО ОРГАНИЧЕСКИМИ СОЕДИНЕНИЯМИ,
СОДЕРЖАЩИМИ АМИНОГРУППЫ**

**02.00.13-Технология неорганических веществ и материалы на их основе
02.00.14-Технология органических веществ и материалы на их основе**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Термез–2025

Тема докторской диссертации по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2024.3.PhD/T4837.

Диссертационная работа выполнена в Термезском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице научного совета www.tersu.uz и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу www.ziynet.uz.

Научные руководители:

Тураев Хаит Худайназарович
доктор химических наук, профессор

Аликулов Рустам Валиевич
доктор химических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Тураев Закиржон
доктор технических наук, профессор

Шукуров Дилмурод Хурсанович
доктор философии технических наук

Ведущая организация

Каршинский государственный университет

Защита диссертации состоится "18" 04 2025 г. в "10⁰⁰" часов на заседании Ученого совета DSc.03/31.01.2023.K/T.78.01 при Термезском государственном университете по адресу: 190111, Сурхандарьинская область, г. Термез, ул. Баркамол авлод, 43, Тел.: (+99876)221-74-55, факс: (+99876)221-71-17, e-mail: termizdu@umail.uz).

Диссертация зарегистрирована в Информационно-ресурсном центре в Термезском государственном университете за № 282 с которой можно ознакомиться в ИРЦ (190111, Сурхандарьинская область, г. Термез, ул. Баркамол авлод, 43, Тел.: (+99876) 221-74-55, факс: (+99876)221-71-17, e-mail: termizdu@umail.uz).

Автореферат диссертации разослан "18" 03 2025 года.
(Протокол рассылки № 1 от "18" 03 2025 года).



И.А.Умбаров
Председатель научного совета
по присуждению ученой степени,
д.т.н., проф.

Ш.А.Касимов
Секретарь ученого совета
по присуждению учёных
степеней, д.х.н., проф.

Л.С.Камолов
Председатель научного семинара
при научном совете по присуждению
учёных степеней, д.х.н., проф.

Введение (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. Сегодня в мире стремительно развивается химическая промышленность, а загрязнение сточных вод и региональных почв вследствие попадания в окружающую среду отходов, образующихся в результате производственных процессов, в частности тяжелых металлов, признано актуальной экологической проблемой. Поэтому создание многофункциональных сорбентов на основе органических и неорганических материалов для удаления тяжелых металлов из сточных вод и технологических растворов является одним из актуальных научных направлений. Технологии производства и виды сорбентов, поглощающих ионы металлов, существенно расширяются. Однако в связи с ростом объемов производства и развитием отраслей промышленности растет и спрос на такие сорбенты. В этих условиях производство высокоэффективных, экологически чистых и экономически выгодных сорбентов приобретает большое значение.

В мире проводятся научно-исследовательские работы, направленные на создание селективных и высокоэффективных сорбентов на основе иммобилизации органических соединений, содержащих аминогруппу, на минеральных матрицах. В данном направлении особое внимание уделяется получению органо-неорганических полифункциональных сорбентов на основе минеральных и органических компонентов, а также разделению переходных металлов из растворов с использованием сорбционных методов комплексообразования. Проводится систематический анализ эффективности синтезированных сорбентов в извлечении металлов из растворов, возможностей применения полученных металл-сорбентных соединений в качестве покрытий, строительных материалов и в других промышленных отраслях. Особое внимание уделяется исследованию устойчивости данных материалов в растворах, их термической стабильности, а также расширению сфер их практического применения.

В нашей стране достигнуты значительные результаты в области разработки новых материалов в химической промышленности. В частности, реализуются масштабные меры по обеспечению внутреннего рынка химическими реагентами, заменяющими импорт. Внедрение инновационных технологий позволяет создать научно обоснованную систему эффективного управления промышленными объектами и реализовать комплексные программы по охране окружающей среды. В «Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы»¹ определены приоритетные направления экономического развития, включая ускорение производства продукции с высокой добавленной стоимостью на основе глубокой переработки местного сырья, создание качественно новых видов продукции и инновационных технологий. В этой связи важное стратегическое значение приобретает развитие химической промышленности, включая создание селективных органо-неорганических полифункциональных сорбентов на основе

¹Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № ПФ-60 «О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы»

органических веществ и минеральных матриц, а также их использование для выделения и исследования металлов.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных в Указе Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28 января 2022 года «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», постановлении № ПП-3264 от 29 августа 2017 года «О мерах по совершенствованию экспортно-импортных деятельности организаций химической промышленности» и № PQ-4805 от 12 августа 2020 года «О мерах по повышению качества непрерывного образования и эффективности науки в химической и биологической отраслях», а также других нормативно-правовых документов, принятых в данной сфере.

Соответствие исследований приоритетам развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики VII «Химические технологии и нанотехнологии».

Степень изученности проблемы. За рубежом активно ведутся исследования по синтезу органо-неорганических и композитных сорбентов, а также их способности к сорбции тяжелых металлов. В частности, российские ученые А.А.Мельников, Н.Е.Гордина, А.П.Синицын, Г.И.Гусев, А.А.Гущин и Р.Н.Румянцев изучали механохимическую обработку вермикулита, изменения водных фаз в его структуре и сорбционную способность. Группа ученых под руководством Лия Чен из Южно-Китайского технологического университета, а также исследователи из Саудовской Аравии А.Салех, А.Сари и М.Тузэн синтезировали новый тип биокompозита на основе хитозан/вермикулита и изучили его эффективность в извлечении свинца и кадмия. Кроме того, ученые Яловского университета (Турция) Нергиз Канман и Пелир Демирчи провели исследования по синтезу композита на основе вермикулита и металл-органической рамки Cu для удаления растворимого в воде органического красителя – малахитового зеленого. Аналогичные научные исследования проводятся и в других странах мира.

В нашей республике проведен ряд научных исследований по изучению минерала вермикулита и созданию на его основе различных химических композитов. В частности, А.Т.Джалилов изучал общие свойства и состав вермикулита, Б.Г.Махкамов и Д.А.Гафурова исследовали методы органической модификации вермикулита и его сорбционные свойства. Х.Х.Тураев и П.Д.Тоджиев занимались разработкой применения вермикулита в органических соединениях, а Х.С.Бекназаров проводил исследования по созданию антикоррозионных материалов на основе вермикулита. Кроме того, Ф.Н.Нуркулов изучал возможности использования вермикулита для синтеза термоизоляционных строительных композитов и антипиренов, а Ш.Д.Ширинов исследовал свойства гидролизованного полиакрилонитрила. Однако в нашей стране научные разработки по органической модификации вермикулита и его сорбционным свойствам в отношении ионов металлов остаются ограниченными. Проведение системных исследований в данной области является одной из актуальных научных задач.

Связь диссертационного исследования с научными планами высшего учебного заведения, в котором выполнена диссертация. Диссертационное исследование выполнено в рамках научно-исследовательских планов Термезского государственного университета по фундаментальным проектам ITD-12 «Синтез комплексообразующих полифункциональных ионитов и теоретические основы разделения некоторых d-металлов с их использованием» (2017-2020 гг.).

Целью исследования является разработка технологии получения органо-неорганических сорбентов на основе вермикулита, модифицированного органическими соединениями, содержащими аминогруппу, а также определение свойств полученных сорбентов и их применение в природных условиях.

Задачи исследования:

расширение вермикулита термическим и микроволновым методами, удаление химически связанной воды и химическая активация расширенного вермикулита с использованием сильных кислот (HCl и H₂SO₄);

модификация активированного вермикулита гидролизированным полиакрилонитрилом.

